



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Abdullayeva Durdona Akmal qizi

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filialitalabasi

O'QITUVCHINING DIDAKTIK VOSITALARDAN FOYDALANA OLIISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Biz bumaqola orqali didaktika nimaligini, didaktiv vositalar haqida didaktika sohasigahissaqo'shgan olimlar va turlixil qiziqarli faktlaralbattadidaktikaga oid didaktikaning mazmun mohiyati va o'qituvchilarga qanday ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatayotgani haqida tubdan gplashamiz.

Kalit so'zlar: Didaktika, o'qituvchi, salbiy, ijobiy, loyihalash.

Didaktika atamasi ilk bor Yevropada 17-asrda o'qitish va ta'lim jarayonida haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo'llanila boshlagan. Chex pedagogi Ya.A.Komenskiyo'zining "Buyuk didaktika "asari (1657)da bolalar va o'smirlarni ma'lumotli qilish va ularga ta'lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqdi. Nemis pedagogi A.Distervego'zining "Nemis o'qituvchilarini ma'lumotli qilishga rahbarlik"(1834 -35) asarida didaktikaning pedagogikada ta'lim nazaryasini bayon etuvchi alohida qism ekanliginita'kidlagan shundan keyin didaktikaga ta'lim nazariyasi haqidagi fan sifatida qarash keng yoyildi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida didaktikaga oid maxsus monagrafiyalar paydo bo'la boshladi¹.

1631-yil "Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi", 1632-yil "Buyuk didaktika", "Onalar maktabi" daryolik va qo'llanmalarini yaratgan. Komenskiyning "hamma narsani bilish, hammaga bilim berish" shiori ostida yozilgan asarlari ilg'or fikrli inglizlarda zo'r qiziqish

¹"Buyuk didaktika " Yan Amos Kameniskiy (37- bet)



uygʻotgan. U lotin tili daryoligi til oʻqitish metodikasi boʻyicha qoʻllanma yaratgan. 1650-yil Vengriyaga keldi va pedagogika nazaryasi taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega boʻlgan “Pansofiya maktabi” (1651), “Yaxshi tashkil etilgan maktab qonunlari” (1653) kitoblarini, oʻquv jarayonida rasmlardan foydalanishning samarali natijalari aks etgan “Hislar vositasida idrok qilinadigan narsalar tasviri” (1658) asarini yozdi².

DIDAKTIKA (taʼlim nazaryasi: yunoncha <didaktikos> “oʻrgatuvchi”, <<didasko>> esa – “oʻrganuvchi” maʼnosini bildiradi) taʼlimning nazariy jihatlari (taʼlimning jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, oʻqituvchi va oʻquvchi faoliyati mazmuni, taʼlim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, taʼlim jarayonini takomillashtirish yoʻllari va xakazo muammolar)ni oʻrganuvchi fan. Bu soʻz 1613-yili Germaniyada nemis pedagogi Wolfgang Ratke (1571 -1635-yillar) tomonidan kiritilgan. Buyuk chech pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592- 1670 yillar) “Buyuk didaktika” nomli mashhur asarida tilga olgan. Lekin Komenskiy “didaktika bu faqat taʼlimgina emas, balki tarbiyalash ham”, deb takidlaydi. Mazkur asarda olim taʼlim nazaryasining koʻrgazmaliligi, ketma – ketligi kabi tamoyillari, sinf – dars tizimi borasida soʻz yuritiladi.

Didaktika taʼlimni ijtimoiy tajribani berish vositasi sifatida eʼtibor etadi. Taʼlim yordamida yoshlarni hayotga tayyorlash amalga oshiriladi. Taʼlimiy faoliyatini tashkil etishda oʻqituvchi – oʻquvchi, oʻquvchi – oʻquv material, oʻquvchi – boshqa oʻquvchilarning oʻrtasidagi munosabatlaryuzaga keladi³.

Didaktikaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- taʼlim jarayonlari va ularni amalga oshirish shartlarini taʼriflash va tushuntirish;
- taʼlim jarayonini yanada mukammal tashkil etish, yanitaʼlim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish ;
- --taʼlim jarayoni uchun xos bolgan umumiy qonunlarni aniqlash , omillarni tahlil qilish va tariflash .

Didaktika nazariy va bir vaqtning oʻzida meʼyoriy – amaliy fan. Didaktikaning ilmiy – nazariy vazifasi taʼlimning mavjud jarayonlarini oʻrganish, uning turli jihatlari oʻrtasidagi boyliklar, ularning mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendensiyalari va kelajagini aniqlashdan iborat.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: oʻrganish, oʻrgatish, oʻqitish, koʻnikma, malaka, kompetensiya, maqsad, mazmun, shakl, tashkil etish, metod, vosita, natija.

Oʻrgatish oʻqitish maqsadini amalga oshirish boʻyicha pedagogning tartiblangan faoliyati. Oʻrganish anglash, mashq qilish va egallangan tajribalar asosida xulq-atvorva faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari oʻzgaradi. Oʻqitish qoʻyilgan maqsadga erishishga yoʻnaltirilgan pedagog bilan oʻquvchilarning tartiblangan oʻzaro harakati. Taʼlim- oʻqitish jarayonida egallanadigan bilim, koʻnikma, malakalar, kompetensiya va fikrlash usullari tizimi. Bilim-maʼlum bir fanni nazariy oʻzlashtirishni aks ettiradigan insongʻoyalari yigʻindisi; Koʻnikma egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, oʻzlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qoʻllash usullarini egallash. Malaka- avtomatlashgan, biror bir usul bilan bexato bajarish,

²OʻzME Birinchi jild . Toshkent, 2000-yil

³Pedagogika tarixi , T., 1996;



ko'nikmaning takomillashgan darajasi. Kompetensiya- egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatida qo'llay olish layoqati. Maqsad- o'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi. Mazmun- o'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi. Tashkil etish- qo'yilgan maqsadni samarali amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon. Shakl- o'quv jarayoning tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantiqi, mazmuni uchun qobiq. Metod- o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li. Vosita- o'quv jarayoning predmeti qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan obyekt. O'quv jarayoni psixologik va pedagogik tushunchalarga asoslanadi, ular ko'pincha didaktik tizimlar deb ham ataladi.

Didaktik tizim deganda ma'lum mezonlar bo'yicha ajratilgan yaxlit ta'lim tushuniladi⁴.

Didaktik tizimlar o'qitishning maqsadlari, tashkiliy tamoyillari, mazmuni, shakllari va usullarining birligi bilan shakllangan tuzilmalarning ichki yaxlitligi bilan tavsiflanadi.

Bir- biridan farq qiluvchi uchta didaktik tushunchani ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) An'anaviy (J.A. Komeniskiy, I. Pestolozsi, I. Gerbart);
- 2) Pedosentrik (D. Dyui, G. Kershenshteyn, V. Lay);
- 3) Zamonaviy didaktik tizim (P. Halperin, L. Zankov, V. Davydov, K. Rogers, Bruner)

An'anaviy o'qitish tizimida o'qitish va o'qituvchining faoliyati ustun rol o'ynaydi. Gibertning didaktikasi boshqaruv, o'qituvchiga yo'l- yo'riq, qoidalar, retseplar kabi tushunchalar bilan tavsiflanadi. Gebertning didaktikaga qo'shgan hissasi o'qitishning bosqichlarini ajratib olishdan iborat. Uning sxemasi quyidagicha: aniqlik—assotsiatsiya - tizim –usul. O'quv jarayoni g'oyalardan tushunchalarga va tushunchalardan nazariy ko'nikmalarga o'tadi. Ushbu sxemaning amaliyoti yo'q.

Pedosentrik kontsepsiya bolaning faoliyatiga asoslanadi, asosiy ro'l o'rganishga beriladi. Dyui o'quv jarayonini bolaning ehtiyojlari, qiziqishlari va qobilyatlaridan kelib chiqib, bolalarning aqliy qobilyatlari va turli ko'nikmalarini rivojlantirishga intilish, ularni "mehnat, hayot maktabi" da o'qitishni, o'qitish mustaqil, tabiiy bo'lsa, qurishni taklif qildi. O'z – o'zidan, o'quvchilar o'zlarining stixiyalik faoliyati jarayonida bilim oladilar, ya'ni "amalda o'rganish".

Zamonaviy didaktik konsepsiyani dasturlashtirilgan, muammoli ta'lim, rivojlantiruvchi ta'lim (P. Galperin, L. Zankov, V. Davydov), gumanistik psixologiya (K. Rodjers), Kognitiv psixologiya (Bruner), pedagogik texnologiya va boshqa sohalar yaratgan hamkorlik pedagogikasi. Ushbu zamonaviy yondashuvlardagi o'quv maqsadlari nafaqat bilimni shakllantirish, balki o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, ularning intellektual, mehnat, badiiy mahoratini oshirish, o'quvchilarning bilim va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishni ham nazarda tutadi. Zamonaviy didaktikaning fikricha bilim o'quvchining mahoratida bo'ladi va shuning uchun ta'lim "mavhum" bilimlarni shakllantirishdan iborat emas, balki undan yangi bilim olish va hayotiy muammolarni hal qilishda foydalanish qobilyatini rivojlantirishdan iborat.

⁴O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar, T.: 1996; Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M.,

Ta'limning tarbiyaviy vazifasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim bilim bilan bir qatorda umumiy va maxsus ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan. Maxsus ko'nikmalar ma'lum fan sohalari, o'quv mavzularidagi faoliyat usullarini bildiradi. Umumiy ko'nikma va malakalarga og'zaki va yozma nutqni, axborot materiallarini, o'qishni, kitob bilan ishlashni, abstrakt qilishni o'zlashtirish kiradi.

O'qituvchining tarbiyasi shundan iboratki, axloqiy va estetik g'oyalarni o'qitish jarayonida dunyo haqidagi qarashlar tizimi, jamiyatda o'zini tutish me'yorlariga rioya qilish, unda qabul qilingan qonunlarga rioya qilish qobiliyat shakllanadi.

O'quv jarayonida shaxsning ehtiyojlari, ijtimoiy xulq-atvor motivlari, faoliyati, qadriyatlari va qadriyatlariga yo'nalishi, dunyoqarash ham shakllanadi. O'qituvchiga o'quvchilarga shakllantiruvchi ta'sir ko'rsatishi uchun o'qituvchi, birinchi navbatda, o'quv materialini uning ta'lim potentsiali nuqtai nazaridan tahlil qilishi va tanlab olishi, ikkinchidan, o'quv va muloqot jarayonini shunday rag'batlantirishi kerakki, uni yaratishi kerak. O'quvchining o'quv ma'lumotlarini shaxsiy qabul qilishi, ularning faol bo'lishiga sabab bo'ladi, o'rganilayotganlarga baholovchi munosabat, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari, insonparvarlik yo'nalishini shakllantiradi.

Bugungi rivojlangan zamonning zamonaviy ta'lim standartlarida didaktik uslubdan foydalanish yoshlarning fan sohasidagi bilimlarini yanada chuqurroq egallash uchun eng samarali metoddir. Bunda o'quvchi yoshlar fanlarni qiziqish bilan o'zlashtirishini ham ko'rishimiz mumkin. Didaktika sohasi asosan yosh bolalarda qo'llaniladi. Yosh bolalar orasida turli xil krossvordlar shashka, shaxmat shu turdagi o'yinlar didaktik o'yinlar hisoblanadi. Bu maqoladan shuni xulosa qilish mumkinki didaktika hayotimizni ajralmas bir Bo'lagi Bo'lib qolgan ayniqsa yosh bolalar orasida.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I., Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, T., 1997 (93 – bet)
2. A Hoshimov K ., Nishonova S , Inomova M ., O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar , T. :1996 (86 – bet)
3. Pedagogika tarixi , T., 1996 (190 – bet)
4. O'zbekiston mutafakkirlari ta'lim tarbiya haqida , T., 1995 (26 – bet)
5. Yo'ldoshov J., Mustaqil O'zbekiston ta'limi , T., 1997 (11 – bet)